

**O‘ZBEKISTON YOSHLARI IQTISODIY IJTIMOIYLASHUVNING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Erkinova Sevara Najmiddin qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil
izlanuvchisi*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada iqtisodiy ijtimoiylashuvning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari, iqtisodiy ijtimoiylashuvning psixologik omillari va mexanizmlari nazariy va empirik materiallar asosiga tayangan holdagi psixologik tahlillar keltirib o‘tilgan.*

***Аннотация:** В статье представлен психологический анализ социально-психологических механизмов экономической социализации, психологических факторов и механизмов экономической социализации на основе теоретического и эмпирического материала.*

***Abstract:** This article presents psychological analysis of socio-psychological mechanisms of economic socialization, psychological factors and mechanisms of economic socialization based on theoretical and empirical materials.*

***Kalit so‘zlar:** Iqtisodiyot, ijtimoiyashuv, jamiyat, ta’sir, iqtisodiy ijtimoiylashuv, mexanizm, ijtimoiy, yoshlarni iqtisodiy ijtimoiylashuvi*

Key words: Economy, socialization, society, influence, economic socialization, mechanism, social, economic socialization of youth

Ключевые слова: Экономика, социализация, общество, влияние, экономическая социализация, механизм, социальный, экономическая социализация молодежи.

Ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya tushunchasi sof ijtimoiy-psixologik va sotsiologik kategoriya bo‘lib, bu shaxsning uni o‘rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta’sirlariga berilishi, uning norma va qoidalarini o‘zlashtirishga moyilligi, o‘zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir.

Bu tushunchaning umumiy ma’nosida insonning tug‘ilib, o‘zini bevosita o‘rab turgan tashqi muhit ta’sirida ulg‘ayishi, shu jamiyat, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishi yotadi. Oila muhiti har bir shaxs uchun ana shunday birlamchi, dastlabki ijtimoiylashuv o‘chog‘i, maskani hisoblanadi. Ijtimoiylashuvning ikkilamchi maskanlari ham mavjudki, unga barcha bosqichdagi ta’lim muassasalari, Mehribonlik uylari, maxsus internatlar hamda harbiy bilim yurtlari kiradi. Chunki u yerda nisbatan uzoq vaqt mobaynida bola tarbiyalandi, o‘sha yerning normalari, qadriyatlari va talablari ta’sirida dunyoqarashi shakllanadi, shaxs bo‘lib yetiladi. Agar dastlabki yoki ikkilamchi sotsializatsiyadan chekinish, undan mahrum bo‘lish yoki xulqning tashqi salbiy ta’sirotlar natijasida deviant shaklga kelishi qayd etilsa, unda ilmiy tilda aytganda, **resotsializatsiya** deb nomlangan jarayon nazarda tutiladi. Shunday qilib, tor ma’noda ijtimoiylashuv shaxsning ijtimoiy muhitga kirib borishi, unda singib ketishi, tashqi ijtimoiy muhit normalarini qabul qilib ularga rioya qilishi yoki qilmasligini tushuntiruvchi jarayondir. “Ijtimoiylashuv” tushunchasi ma’no jihatdan yaqin bo‘lgan ikki xil tushuncha bilan bog‘liq: “tarbiya” va “moslashuv”. Ijtimoiylashuv tarbiya jarayonidan ancha kengroqdir, chunki uning ma’no-

mazmunida har doim ham qolipga solib bo‘lmaydigan, har doim ham shaxs tomonidan anglanmaydigan holatlar ham mavjud bo‘ladi. Moslashuv esa ijtimoiylashuvning bir tarkibiy qismi, uning mexanizmi sifatida qaralishi mumkin. **Ijtimoiy-psixologik moslashuv**, ya’ni, shaxsning ijtimoiy munosabatlarga ko‘nikishi va moslashishi orqali orttirgan tajribasi umumiy ijtimoiylashuvning bir ko‘rinishidir.

Ijtimoiylashuv jarayonida inson jamiyatdagi ijtimoiy normalarni o‘zlashtiradi, turli rollarni bajarishga o‘rganadi, jamoatchilik sharoitida o‘zini tutish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi shu ma’nodagi uning ijtimoiy borliqni bilishiga, anglashiga asoslanadi.

Ijtimoiylashuv manbalariga quyidagilar kiradi:

- 1) bolalik davrida orttirilgan tajriba – bu jarayon psixik funksiyalarning shakllanishi va dastlabki ijtimoiy xulq normalarining namoyon bo‘lishi bilan parallel ravishda kechadi;
- 2) yurtlari va undan yuqori pog‘onalardagi ta’lim olishga imkon beruvchi maskanlar, mehnat jamoalari shular jumlasidandir;
- 3) muloqot va hamkorlikdagi faoliyat jarayonidagi odamlarning ta’siri.

Bu o‘rinda ham rasmiy, ham norasmiy sharoitlarda odamlarning bir-birlari bilan muloqoti, muomala maromlari nazarda tutiladi. Inson hayoti mobaynida bajaridigan har bir rolida uni o‘rab trugan ijtimoiy borliqning normalari, qoidalari, xulq-atvor mezonlari o‘z aksini topgan bo‘ladi. Har bir odam hayoti mobaynida xaddan ziyod ko‘p turli rollarni bajaradiki, ularning barchasi uning ijtimoiylashuv tajribasida munosib iz qoldiradi. Shuning uchun ushbu jarayonda har bir odam o‘zining jamiyatda o‘rnini topishga intiladi va samarasiga ko‘ra u yoki bu mavqega erishadi. Aslini olganda ijtimoiylashuvning har bir bosqichida shaxs o‘zining “Men”ini tobora anglab, unga kerakli tuzatishlar kiritib boradi.

Agar shaxsiy tajriba ijobiy bo'lib, odam ko'rgan-kechirganlaridan yaxshi va to'g'ri xulosalar chiqarib, to'g'ri turmush tarzini shakllantira olsa, uning odamlar orasida obro'si yuqori, aks holda shaxs degradatsiyasi, xulqdagi deprivatsiyalar haqida xulosa chiqariladi. Demokratik jamiyatda ijtimoiylashuvning ma'nosi odamning o'z "Men"ini to'la ifoda eta olishi, o'z iqtidori, salohiyati va imkoniyatlarini o'z kamoli va odamlar manfaatiga bo'ysundira olishi bilan ifodalanadi. Totalitar tuzum esa aksincha, odamlarda mazoxizm (tobelikka ko'nikish, ahloqan past ketishliklar), sadizm (o'zgalar ustidan cheksiz hukmron bo'lishga intilish, odamlarni qo'rqitish, ular ustidan zo'ravonlikni namoyon etish), destruksiya (o'z nochorligidan qutulish uchun butun dunyoga zarar keladigan harakatlardan jirkanmaslik), konformizm (o'z "Men"idan voz kechib bo'lsa ham o'zgalar hukmiga itoat etishga o'rganib qolish) kabi holatlarni keltirib chiqaradi.

Iqtisodiy ijtimoiylashuv muammosi nafaqat iqtisodchi, balki mahalliy psixolog mutaxassislarning e'tiboridan biroz chetda qolib, hozirgi integratsiyalashgan sohaning o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. Bolalik davridan balog'at davriga o'tish bosqichi – iqtisodiy psixologiya sohasi tadqiqotlarining predmeti sifatida ommalashmagan mavzular sirasiga kiradi.

Bu borada yetakchi va ko'zga ko'ringan chet el ijtimoiy psixologlari I.S.Kon, T.Shibutani, B.D.Parigin, G.M.Andreeva, A.A.Bodalev, A.A.Reanlarning fikricha, hatto o'spirinlar va talabalarning umumiy ijtimoiylashuvi masalasi ham fan olamida eng kam o'rganilgan muammolardan biridir.

Shu bois ham mazkur tadqiqotimizda, iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayoniga guruhiy munosabatlar ta'sirini aniqlash hamda ularni ijtimoiy-psixologik omillar guruhi sifatida yaxlitlashmaqsadida olib borilayotgan ilmiy izlanishimizga konseptual (shaxsga faoliyatli) yondashuvni amalga oshiramiz hamda shaxs

iqtisodiy ijtimoiylashuvi konsepsiyasi va rejalashtirilgan eksperimental tadqiqotga doir asosiy g‘oyaviy yo‘nalganlikni belgilab olganmiz.

Buning uchun esa “shaxsga faoliyatli yondashuv” modeli orqali iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonini–shaxs, xulq-atvor va faoliyat kabi tayanch psixologik tushunchalar kontekstida o‘rganamiz. Shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayoni muammosining shaxsga faoliyatli yondashuvi modelida, ana shu tayanch tushunchalar iqtisodiy psixologiya sohasining mazmun-mohiyatini ochishda qanday rol bajarayotganligini guvohi bo‘lish mumkin. Bunda faoliyat tuzilmasi “maqsad”, “vosita” va “natija” komponentlarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, undan doimiy harakatdagi borliq(materiya)ning mohiyatini tushuntirishda foydalanilgan. Jumladan, iqtisodiy munosabatlarga yo‘naltirilgan shaxs faoliyatining maqsadi xatti-harakatlarning qism va bosqichlarini aniqlashtirib beruvchi vazifalar yechimidan tashkil topgan bo‘lib, u, asosan, iqtisodiy voqelikda ayon bo‘ladi. Bunda shaxsning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini yuzaga chiqaruvchi usul/uslublar iqtisodiy faoliyat maqsadiga yetishish vositasi sifatida qo‘llaniladi. Iqtisodiy munosabatlar jarayonida erishilgan faoliyat natijasidan esa shaxs tomonidan dastlabki qo‘yilgan maqsadning samaradorligini tekshirish va baholash yoki zaruriy hollarda unga tuzatish kiritish/yangisiga almashtirish uchun foydalaniladi.

Xuddi shunday yondashuv orqali, shaxs va xulq-atvor tushunchalarini ham yuqoridagi kabi shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayonining mohiyatini yoritishda zarur bo‘ladigan (izomorfizmning mantiq tamoyillariga asoslangan holda tayanch tushunchalar sifatida e‘tirof etishimiz mumkin.

Shaxsning iqtisodiy hodisalarga oid yangi axborotlarni maqsadli tarzda qabul etishi, oydinlashtirishi, tahlil asosida amaliyotda qo‘llashi, tafakkurdagi sintez, solishtirish, abstraksiyalash, konkretlashtirish kabi jarayonlarni ishga solib, innovatsiyalar yaratishga harakat etishi shaxsdagi “iqtisodiy bilim va madaniyat”ni belgilovchi fazilatlar shakllanganlik darajasiga bevosita bog‘liq

hisoblanadi va bunday xatti-harakatlar algoritmi uning iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli ijtimoiylashganligini yaqqol namoyon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ключко Ю.В. Ригидность в структуре готовности человека к изменению образа жизни. Автореферат дис. ... кандидат психол. наук: 19.00.01. – Барнаул, 2002.; Толстых А.В. Опыт конкретно-исторической психологии личности. – СПб.: «Алетейя», 2000.

2. Шанин Т. История поколений и поколенческая история // Отцы и дети: поколенческий анализ современной России. — М.: Новое литературное обозрение, 2005. С. 17-38.

3. Фернам А., Аргайл М. Деньги. Психология денег и финансового поведения / Под общей редакцией А.Алексеева. –СПб.: Прайм-Еврознак, 2005. –352

4. Navbahor Shokirovna Umarova, Pokiza G‘anisher Qizi O‘risheva PSIXOLOGIK MADANIYAT SHAXS IJTIMOIYLASHUVI OMILI SIFATIDA //CARJIS.2022.No5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psixologik-madaniyat-shaxs-ijtimoiylashuvi-omili-sifatida> (дата обращения: 15.11.2022).

4. Ҳайитов О., Умарова Н. Ёшларда профессионал ўсишга интилишни ривожлантиришнинг назарий-амалий асослари (шажаралар негизи мисолида) //Н Умарова-Т.:“TURON-IQBOL. –2001.